

**TOG‘AY MUROD ASARLARIDA UMUMINSONIY VA MILLIY
QADRIYATLAR TALQINI**

Matniyazova Maftuna

UrDPI Pedagogika fakulteti tyutori

Adabiy taxallusi Tog‘ay Murod, asl ismi–sharifi Tog‘aymurod Mengnorov bo‘lgan bu noyob iste’dod egasi 70-yillari adabiyot maydoniga kirib keldi. Dastlab mayda hikoyalar yozib yurdi. Ularda o‘ziga xos iste’dod jilolari borligini birov payqadi, birov payqamadi. 1976-yili «Yulduzlar mangu yonadi» degan qissasi «Sharq yulduzi»da e’lon etildi-yu, birdaniga uning nomi el og‘ziga tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb e’tirof etildi. So‘ng birin-ketin «Ot kishnagan oqshom» (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo yer qo‘shig‘i» (1985) qissalari chiqdi. Bu asarlarning har biri adabiyot osmonida go‘yo momoqaldiroqdek yangradi, keng jamoatchilik e’tiborini tortdi, qizg‘in bahsmunozaralarga asos bo‘ldi. Bu qissalari uchun Tog‘ay Murod Respublika Yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

Tog‘ay Murod 1986-1991 yillari «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993- yili dunyo yuzini ko‘rdi. Roman 1994- yili istiqlol davri o‘zbek adabiyotining ilk yetuk namunasi sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ushbuasrarlarining barchasining o‘ziga xos yaratilish tarixi bor, adib bularni shunday xotirlaydi:

«Men o‘rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha o‘ylanmayman oila qurmayman, biror ifoda faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: faqat jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg‘anmadim.

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda «Yulduzlar mangu yonadi» nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g‘animlarimga:

«Mana men kimman degan bo‘ldim».

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Qissa elchiga manzur bo‘ldi. [1. T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 264-265.]

Adibning o‘zbek dehqonlarining va shaxs hamda o‘tmish fojialari talqin qilingan yana bir romani «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» deb nomlanib, asar 2001 yilda nashr qilindi. Tog‘ay Murod badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarni, E.Seton-Tompsonning hayvonot dunyosi haqida mashg‘ur «Yovvoyi yo‘rg‘a» kitobini mahorat bilan o‘zbekchalahtirgan.

Tog‘ay Murod ijodiy izlanishlarining rang-barang hayotiy materiallar asosida ruyobga chiqqanligi ayniqsa quvonchlidir. Chunki: «Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar, xarakterlar yaratar ekan, u o‘z fantaziyasining bandasi bo‘lib qola olmaydi. Yozuvchi istagidan ustun turadigan qalamining yo‘nalishini belgilab beradigan ma’lum kuchlar borki, san’atkor ular bilan hisoblashmasdan iloji yo‘q. Shulardan biri hayot mantiqidir» Yozuvchi o‘z qahramonlarining xarakterini ana shu psixologik muhit orqali ochib beradi. Shunday qilib, oddiygina hikoyalardan badiiy kashfiyat yaratadi. Yozuvchi qahramonlarining o‘z dunyosini psixologik dialekti bilan birga beradi. Bularning hammasi T.Murodning mohir yozuvchi bo‘lib shakllanganligidan dalolat beradi. [2.Qo‘shtonov M. Hayot va nafosat. -T.: Fan, 1970. –B. 16.]

Negadir T.Murod o‘zining 2001-yil nashr etilgan «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» degan roman, hikoyalar va maqolalar to‘plamiga hzining har yillarda yozilgan to‘rtta hikoyasini kiritgan. Nega aynan mana shu hikoyalar deb o‘ylab, beixtiyor asarlarning yozilgan vaqtlariga diqqat qilasan kishi. Shunda T.Murodning talabalik davridanoq o‘z hikoyalarida haqiqatni aytishga harakat qilganligini sezish mumkin. «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» romani XX asrdagi o‘zbek xalqi ko‘rgan azob-uqubatlari, dardlari va qayg‘uli voqealarini aniq va ochiq-oydin ko‘rsata olgan asardir. Shu kitobga kiritilgan hikoyalar roman voqealariga adabiy - estetik, ijtimoiy - siyosiy ma’nosiga qarab tartiblashtirilgan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Bizning fikrimizcha «Bobosi bilan nevarasi» (1966), «Kuzning bir kunida» (1967), «Ku-ku-ku...» (1970) va «Er-xotin» (1970) [3. T.Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: Sharq, 2001. –B.176.] hikoyalari garchi romandan oldin yozilgan bo‘lsa ham, unda aytilmay ketgan ba’zi joylarini to‘ldirib turgandek... T.Murodning bu hikoyalariga nazar tashlar ekanmiz, unda qa’ramonlar kayfiyatini yaqqol sezish mumkin. Uning hikoyalarida inson shaxsiyatiga diqqat-e’tibor kuchliligi bilan birga ruhiy tahlillar ancha terandir. Tog‘ay

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Murod hikoya yaratar ekan, asarlarining sodda, ixcham va mazmundor bo‘lishini ta’minlaydi. Ayrim hikoyalarida portret, peyzaj tasvirlari deyarli kuzatilmaydi ham bor narsalarni xarakterlar va ruhiy tahlillarga yuklaydi. Uning asarlarining tematikasi ham yangi. Demak, u yaratgan asarlar badiyligi va yangi bir g‘oya, yangi bir masalalarni ko‘tarishi bilan qimmatlidir. T.Murod tasvirlagan voqealar, xarakterlar qismati bir-biriga mantiqan ham mos tushadi.

T.Murod ijodidagi asarlar o‘zining tili va yozilish uslubi bilan ham bosh asarlardan keskin farq qiladi. «Qisman mumtoz adabiyotimizdagi shaxs yo‘lini, ko‘proq xalq dastonlaridagi nasriy ifoda hikoya qilish yo‘sinlarini eslatadigan, aslida faqat Tog‘ay Murodgagina xos XX asr zamonaviy o‘zbek tili yangi o‘zbek nasri mahsuli bo‘lmish bu xil badiiy matn adabiyotimizda tamomila yangi, noyob hodisa. Matndagi gaplarning tuzilishi tarzi, ohangi, so‘z va jumlalarning takrorlanishi xalq tilining rang-barang tovlanishi, nozik lutf, qochiriqlar, goh xazin kayfiyat goh tabassum uyg‘otuvchi ifodalar, birgina jumla, birligida tanbeh orqali butun boylarga tatigulik voqeい drama, ruhiy holat-kechinmalarining jonli gavdalantirilishi-bularning barchasi yetuk she’riyat, dastonchilik tajribalarini yodga tushiradi» [4. Karimov I. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –B. 529.]

O‘zbek nasrinining an’anaviy dasturini davom ettirib, yangicha ruhdagi asarlar yaratish T. Murodning oldiga qo‘yan maqsadi edi. Ularda yozuvchi nozik psixologizmni, mavzuning kengligi, voqealar tor bo‘lgan bilan, mazmuni boyligi hayotga mosligi, hikoyalarida shaxs muammosi, inson taqdiri, avlod, kelajak qanday bo‘ladi? kabi masalalarni ko‘tarib bera oldi. U o‘zining 60-70 yillarda yaratgan hikoyalarida xuddi shu narsalarni e’tirof etib, inson taqdiri, uning tortishuvlari, xarakter xususiyati orqali shu davrga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qaray oldi va shularni ayta bildi.

Tog‘ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasi halollik va mardlikni tarannum etuvchi asarlardan biri bo‘ldi. Qissa qahramoni Ziyodulla kal elning mashhur chavandozi. Chavandozlar orasida ham o‘zining halolligi bilan tanilgan. U g‘ironlik ro‘y bersa, u to‘g‘risini aytadi. To‘g‘rilik Ziyodulla kalning qonida bor. Ziyodulla kal bir to‘yda o‘yinga chilvir solgan chavandozlarni ko‘rib nafratlanadi: «Birodarlar, chavandozlar nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arazlab ketayapti? Adolatdan! Bir to‘da nomard imonsizga achchiq qilib, adolatni o‘tga tashlab ketayapti!» lekin Ziyodulla chavandoz adolat osmonda deguvchilarga qarata bunday deydi: «Yo‘q

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

birodarlar, adolat yerda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! adolatni kim bundayin xor qilayapti? Biz-o‘zimiz!» albatta, Ziyodulla chavandoz aytganidek, adolat haqida ko‘p gapirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Tog‘ay Murod yaratgan badiiy obrazlar kitobxon qalbidan chuqur joy egallaydi, kitobxonda obrazga nisbatan iliqlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat xiladi.

Har qanday badiiy asar ham asosan ma’lum bir haqiqatni ruyobga chiqarish uchun yoziladi. Shu bilan birga asar saviyasini oshiradigan ham, tusharidigan ham uning tilidir. Tili ta’sirli bo‘lmasa qahramonlar vapersonajlar ruhiyoti va xarakter mantig‘iga mos tushmasi unday asarda obraz ham psixologizm ham yaxshi ochilmaydi. M.Gor’kiy aytganidek, «Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish qurolidir». [5. M.Gorkiy «Literaturno-kriticheskie stati. –M.: 1937. –S. 584.]

Bu narsalar T.Murod ijodida xususan hikoyalarida yaxshi ifodalangan. U nima aytmoqchibo‘lsa, shuni aniq ayta biladi. XX asrning 70-yillarda ham o‘z fikrini o‘z so‘zi bilan oshkor eta oldi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 264-265.2.
- 2.Qo‘sjonov M. Hayot va nafosat. -T.: Fan, 1970. –B. 16.
3. T.Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: Sharq, 2001. –B.176.
4. Karimov I. va boshqalar «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –B. 529.
- 5.M.Gorkiy «Literaturno-kriticheskie stati. –M.: 1937. –S. 584.

**Research Science and
Innovation House**